

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-51409-3.02

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**PSIXOLOGIYA
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar
tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi
5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Primov M.,
o'q. Xolyigitova N.

Taqrizchilar: dots. Haydarov F.,
dots. Babashev F.

"Psixologiya" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dasturda mustaqillikning bizga bergan ijodiy va mustaqil tafakkur qilishdan iborat cheksiz imkoniyatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Dasturda psixologik bilim asoslari muxtasar tarzda bayon etilgan bo'lib, u yoshlar o'zini, o'zgalarni bilishi, turli psixologik vaziyatlar va guruhlarda muomala qilish sirlarini, erkin, mustaqil fikrlash omillarini, psixik hodisalarning qonuniyatlarini bilishlari uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shu bilan birga Kadrlar tayyorlash milliy dasturida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri-malakali mutaxassislarning o'zligini, o'z qobiliyatlarini, individualligini, shaxsiy fazilatlarini hamda xislatlarini bilgan holda atrofdagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishni ta'minlashdir.

Благодаря независимости нашей Республики перед нами открылись безграничные возможности в области науки и свободного мышления. Данная программа по предмету " Психология" составлена на основе требований Национальной программы по подготовке кадров.

В ней предоставлены важные теоретические и практические знания по основам психологии. Особое внимание уделено на познание самого себя и других, как мыслить свободно и вести себя в различных ситуациях, в коллективе, в обществе.

В этой программе отражена одна из важных задач, поставленных национальной программой по подготовке кадров, перед высшем образованием- как воспитать свои возможности, индивидуальность, зная свои достоинства, разумно оценивать труд окружающих, правильно организовывать социально полезную деятельность профессионалов.

We are open boundless possibilities in the field of sciences and free thinking due to independence of our Republic. To example provided to students a program on subject "Psychology". In this program are afford important data and rules on bases of psychology and their regulation, for instance cognition itself and other how to behave in different situations and group in society, liberally in different psychological situations. Needed to emphasize purposes put (deliver) before formation a personnel (frames) by national program of preparing a personnel (frames). As their own possibilities, knowing their own

value, value labour surround, correctly organize social labor profit of capable and experienced professionals their own action.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSH

Ushbu fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarida bugungi kun talablariga javob beradigan iqtisodchi-bakalavrlarni tayyorlashda "Psixologiya" fanini o'rganish o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki iqtisodchi-bakalavrlar etuk malakali mutaxassis bo'lib etishishlari uchun psixologiya sohasida muayyan bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

"Psixologiya"da fanning predmeti, umumiy psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy jihatlari o'rganiladi.

Fanni o'qitishning asosiy maqsadi-bo'lg'usi iqtisodchi-bakalavrlarga o'quvchi, talaba psixologiyasi va iqtisodiy jarayonlardagi psixologik xususiyatlar, psixologik jarayonlar to'g'risida bilimlar berishdan iboratdir. Psixologiya fanini samarali o'rganish uchun talaba iqtisodiyot nazariyasi, pedagogika, falsafa, sotsiologiya kabi fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

"Psixologiya" fani iqtisodiy faoliyat sohasiga oid referatlar, mustaqil ishlar yozishda, ushbu sohalardagi zaruriy psixologik xususiyatlarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratga qo'yiladigan talablar

Iqtisodchi-bakalavrlar ta'lim jarayoni va iqtisodiy faoliyat jarayonidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlarni bilishlari zarurdir.

Talabalar psixologik kuzatish, psixologik diagnostika va psixologik testlar vositasida voqe'likni tahlil qilish asosida tegishli xulosalar chiqarish ko'nikmasini egallashlari lozim.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar

Iqtisodchi-bakalavrlarning amaliy mashg'ulot darslari bahs, munozara, breynshtorming va treninglar orqali amalga oshiriladi. Talabalar oldiga qo'yiladigan

asosiy talablar ularning turli qobiliyatlarini ayniqsa, mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, mashg'ulot mavzusini shaxsiy tajriba va vaziyatlarga bog'liq holda o'zlashtirishga erishishdan iborat.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

"Kasb ta'limi" yo'nalishida "Psixologiya" fani bo'yicha namunaviy o'quv rejasiga ko'ra jami 135 soat ajratilgan bo'lib, ulardan ma'ruza darslari uchun 36 soat, amaliy mashg'ulotlar uchun 54 soat, mustaqil ta'lim uchun 45 soat mo'ljallangan.

Bakalavrlar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Bakalavrlar bilimini baholash uchun ma'ruza darsida oraliq baholash to'rt marta, seminar mashg'ulotida joriy baholash to'rt marta, yakuniy baholash ikki marta o'tkaziladi.

Semestrlar oxirida esa yakuniy baholash birinchi marta og'zaki va ikkinchi marta esa yozma tarzda o'tkaziladi. Yozma ishdagi so'zlar miqdori 1200 dan kam bo'lmasligi lozim.

Har bir semestrda barcha nazorat turlari (JB, OB, YaB) umumlashtirilib, o'rtacha ball qo'yiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Bakalavrlarga bilim berish mobaynida kompyuter sinflaridan, multimediyadan hamda bahs-munozara, breynstorming va treninglar, monolog, dialog, polilog va muammoli vaziyatlardan chiqish kabi usullardan foydalaniladi.

O'quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

"Kasb ta'limi" yo'nalishida "Psixologiya" fani namunaviy o'quv rejasi bo'yicha 3-4-semestrda o'qitiladi.

2. FAN DASTURI

"Psixologiya" fanining predmeti va vazifalari

Yangi davr va psixologiya. Inson omili. Psixologiyaning predmeti. Psixika. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rni. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va h.k. bog'liqligi. Kibernetika fani. Psixologiyaning texnika fanlari, iqtisodiyot bilan aloqasi. *Psixologiyaning tarmoqlari*. Psixologiyaning vazifalari.

Psixologiyaning zamonaviy usullari va ularni amaliyotga tadbiiq etish

Psixologiyaning asosiy usullari. Kuzatish usuli. So'roq usuli. Testlar usuli. Eksperiment. Modellashtirish. Psixologiyaning tadbqiqiy va amaliy sohalari. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tadbqiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida psixologik bilimlarning ahamiyati. Psixologiyaning tadbqiqiy yo'nalishlari. *Psixologik testlar va ularning imkoniyatlari.*

Psixologiyada shaxs va jamiyat muammosi

Shaxs-ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida. Nativizm yo'nalishi. Empirizm tarafdorlari. Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar. Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Sanktsiyalar va shaxs. Rollar. O'spirinlik davrida shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs autodialogining muhim belgilari. Ijtimoiy institutlar. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo'nalishining shakllanishi. Mas'uliyat tushunchasi. Maqsadlar va ideallar. Qiziqishlar va dunyoqarash. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. Milliy va ma'naviy qadriyatlar. Ma'naviyat va ma'rifat. Oila. Mafkura. *Ijtimoiy ustanovkalar.*

Shaxsning faolligi. Faoliyat turlari, motivatsiyasi va ularni boshqarish. Ijtimoiy hulq motivatsiyasi. Anglangan va anglanmagan motivlar

Shaxs va uning faolligi. Tashqi faollik. Ichki faollik. Jismoniy va aqliy harakatlar. Malaka. Ko'nikmalar. Faoliyat turlari: muloqot, o'yin, o'qish, mehnat. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Motivlarning turlari. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi. Inson faoliyatining o'ziga xosligi. Professional malaka va ko'nikmalarning shakllanishi. *Motivatsion nazariyalar va ularning qisqacha ta'rifi.* Muvaffaqiyatga erishish motivlarini shaxsda o'rganish.

Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va uning adekvatligi.

Bilish jarayonlari va professional faoliyat: idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar. Idrok va idrok qilish qonunlari. Figura va fonning ilgariligi harakatga bog'liqligi qonuni. Idrokning konstantligi qonuni. Kutishlar va tahminlarning idrokka ta'siri. O'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Anglanganlik qonuni. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Xotira va shaxs tajribasining boyligi. Idrokning inson hatti-harakatlari bilan aloqasi. Idrok obrazlarining shakllanishiga olib keluvchi omillar. Idrokning anglanganligi. Idrok va tafakkur. Xotiradagi individual farqlar. *Psixologiyadagi xotira nazariyalari. Xotirani o'stiruvchi psixologik omillar.*

Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari. Ijodiy va mantiqiy fikrlash-sog'lom ma'naviyat va e'tiqodni tarbiyalash omili sifatida

Tafakkur turlari. Tafakkur shakllari va operatsiyalari. Tushunchalar. Xulosalar. Mustaqil fikrlash-sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlantirish. Tafakkurning boshqa psixik jarayonlar bilan aloqasi. Tafakkur xususiyatlari: autistik va realistik tafakkur. *Tafakkur va fikrlashdagi individual farqlar*. Mustaqil fikrlashning tabiiy asoslari.

Shaxsning individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish. Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati

Individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi: qobiliyatlar, temperament, xarakter, irodaviy sifatlari, emotsiyalar va motivatsiya. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi. Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlari. Layoqat, iqtidor, iste'dod. Qobiliyatlarning psixologik tarkibi. *Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi*. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.

Hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy yo'nalishlar

O'zbekiston Respublikasining suveren, demokratik taraqqiyot yo'lini tanlanganligi natijasida chet el psixologiyasidagi nazariy va amaliy maktablar g'oyalariga nisbatan munosabatning o'zgarishi.

Funksional psixologiya nazariy qarashlarning umumiy mazmuni. Funksional psixologiya vujudga kelishining ijtimoiy va nazariy asoslari. Bixeviorizm oqimi vujudga kelishidagi asosiy ehtiyojlar. Bixeviorizm oqimining ong tushunchasi va introspektsiya usuliga qarshi chiqishi, uning o'rniga hulq-atvor tushunchasini ilgari surishi. Geshtalt psixologiya oqimi to'g'risida umumiy tushuncha. Geshtalt psixologiyada idrok jarayonlarida konstantlik (doimiylik), tarkibiy tuzilishga egalik, predmet obrazining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqlik qonunlarini kashf etilishi. Geshtalt psixologiya oqimi asosiy vakillari M. Vertxeymer, V. Kyoler, Xoffko va "Fi-fenomen" maktabining qarashlaridagi nazariy g'oyalar. Freydizm oqimining mohiyati. Inson ongidan siqib chiqarilgan affektlarning hulq-atvorga ta'siri o'rganilishi. *Gumanizm psixologiyasida insonlarga "ochiq imkoniyatlarga ega va o'z-o'zini takomilga etkaza oluvchi, noyob tizim" sifatida qaralishi*. Gumanizm psixologiyasi vakillari G. Olport, A. Maslou, K. Rodjers qarashlarining mazmuni.

K. Yung ongsizlik tabiati to'g'risida

Pedagogik faoliyat psixologiyasi

Jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlari va milliy fazilatlarni shakllantirish. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabat. Bilim berish-bilim olish. O'rgatish-o'rganish maylida kechadigan munosabatlar. Ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublari, ta'lim-tarbiya beruvchining ma'rifiy

tamoyillari. Shaxsning har tomonlama kamolga etishi, ta'lim va tarbiyaning insoniyligi, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muloqot. Kasbga yo'naltirish. Ta'limda engillik va faollik tamoyillariningpsixologik xususiyatlari, o'qituvchi shaxsiga nisbatan kasbiy va insoniy talablar. *Pedagogik faoliyatni shakllantiruvchi omillar*. Pedagogik faoliyatni yuritishda Imom Buxoriy, Iso-at-Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy, Behbudiy, Avloniylar xizmatlarining psixologik tahlili.

Ta'lim psixologiyasining asoslari, mohiyati va qonuniyatlari

O'qitishning mohiyati va uning qonuniyatlari. Ta'lim tizimini boshqarish. O'zlashtirishning psixologik komponentlari. Ta'lim olishda bilish jarayonlarining roli. Individual psixologik xususiyatlarning ta'lim jarayonlari bilan bog'liqligi. Ta'lim olishda ongning roli. Aqliy rivojlanishning mezonlari. Ta'limni intensivlashtirish. Aktiv, mustaqil fikr, ijodiy tafakkur, mustaqil bilish faoliyatini tarkib toptirish. Ta'limni indiviuallashtirishda qobiliyatning ahamiyati.

Psixologik xususiyatlarning ta'limni rivojlantirishdagi o'rni. Matematik hamda adabiy qobiliyatlarni tadqiq qilish usullari.

Tarbiya psixologiyasi asoslari. Jamoa va uning tarbiyaviy ta'siri

Shaxsni tarkib toptirishning umumiy psixologik qonuniyatlari. Bolalik va maktab yoshida tarbiyaning shaxsga ta'siri. Bilimlarni ma'naviy xulq-atvor amaliyotisiz o'zlashtirib olishning mohiyati. Ma'naviy bilim va ma'naviy hulq-atvorning bog'liqligi. Tarbiyaning motivlarga bog'liqligi. *Tarbiyaviy ish uslublari*. Bilimlar ahloqiy tasavvurlar va tushunchalar sifatida. Jamoadagi tarbiyaviy ta'sir.

Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari. O'spirinlik va etuklik davrlari psixologiyasi

Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotip omillar. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi. O'smirlik davri. O'spirinlik davri. Yoshlardagi attraktsiya va yuksak his-tuyg'ular. Insoniy fazilatlar. Yosh davrlar psixologiyasida shaxs va taraqqiyot muammosi. Turli yosh davrlarni o'rganish usullari. Attraktsiyaning psixologik tahlili. O'spirinlardagi sevgi va sadoqat mezonlari. *Yoshlarni yuksak ahloqiy munosabatlarga tayyorlash va ularda Vatan tuyg'usini tarbiyalash masalasi*.

Shaxs insoniy munosabatlar tizimida. Muomala texnikasi va strategiyasi. Samarali ta'sir sirlari

Insoniy munosabatlar psixologiyasi. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'рни. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Psixologik ta'sirning uch vositasi: verbal ta'sir, paralingvistik ta'sir, noverbal ta'sir. Muloqot va uni o'rganish muammolari. Professional tinglash texnikasi. Ijtimoiy -psixologik trening. Inson va hayvon muloqotining o'ziga xos tomonlari. Bolalar va kattalar muloqotining o'ziga xosligi. Amaliy muloqot texnikasi va strategiyasi. Ta'sirchan muomala sirlari. Sharq allomalari muloqot etikasi va mahorati haqida. *Bozor munosabatlari sharoitida shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish muammosi.*

Guruhlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish. Guruhiy o'zaro moslik, liderlik va konformizm hodisalari

Shaxs va guruh. Guruhlarning turlari. Referent guruh. Normativ guruh. Qiyoslash guruhlari. Negativ guruhlar. Guruh o'lchamlari va uning tizimi. Jamoalarda psixologik o'zaro moslik. Gruppaviy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasi. Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish. Jamoa faoliyatining samaradorligi. Jamoalarda ro'y beradigan psixologik hodisalar. Jamoaning shaxsga ijobiy va salbiy ta'sirlari. Jamoani boshqarishning samarali usullari. Mehnat jamoalarining konkret shaxsga ijobiy ta'siri. *Jamoadagi ma'naviy muhitni shakllantiruvchi omillar.*

Menejerlik psixologiyasi

Boshqaruv psixologiyasi haqida tushuncha. Boshqaruv faoliyati muammolari. Boshqaruv muammolari haqida falsafa, tarix, iqtisod, xuquqshunoslik fanlarining talqini. Boshqaruv ob'ekti va sub'ekti. Boshqaruvning qoida va usullari. Guruhlarda rahbarlik va etakchilik. Etakchilik usullari haqida tushuncha. Avtoritar, demokratik va liberal usullar. Rahbarlik sifatleri. Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoaning rivojlanish bosqichlari. Rahbarlarga qo'yiladigan talablar. *Rahbarlarning muammoli vaziyatni bartaraf qilishi.*

Tadbirkorlik va biznes psixologiyasi asoslari

Tadbirkorlik va biznes faoliyati psixologiyasi haqida. Tadbirkorlik va biznes faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy -psixologik (ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy, siyosiy va psixologik) omillari.

Tadbirkorlik faoliyatida shaxs psixologiyasi. Layoqat, iste'dod va qobiliyatlar. Muomala psixologiyasi va tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik faoliyatida nizolar va ularning oldini olishning psixologik yo'llari. *Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish.*

Tadbirkorlik va tashabbuskorlik. Tadbirkorlik va biznes faoliyatida reklama va marketingning o'рни. Tadbirkorlik va biznes faoliyatida shaxsning ma'naviy qiyofasi. Tadbirkorlik va biznes faoliyatini boshqarish.

Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Oilaning shaxsni shakllanishidagi roli. Oilaning ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishi. Oilaviy hayotda bo'ladigan o'zgarishlar, muammolar, qonuniyatlar. Oilaviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Oila muloqoti. Oilani rejalashtirish. Oilaning asosiy funktsiyalari. Nikohga etuklik xususiyatlari. Nikoh yoshi xususiyatlari. *Oilaviy nizolar*. Ota-onalar obro'si va shaxsiy namunasi tarbiya samaradorligini oshiruvchi omil sifatida. Oilaviy tarbiyani takomillashtirish vazifalari.

Guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy psixologik shartlari. Monolog. Dialog. Polilog. Faol o'qitish usullari va ularni tashkil etish. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi. Bahs turlari. Yozma bahs o'tkazish usullari. Ta'lim jarayonida pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlari. *Munozara usullarining ijtimoiy-psixologik ahamiyati*. Katta va kichik guruhlarda munozaralarni tashkil etish qoidalari. Bahsda samarali ishtirok etish tamoyillari.

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning jamiyatdagi o'rni.

Psixologiya fanining fanlar tizimidagi o'rni. Psixologiya fanining tarmoqlari va ularning vazifalari. Psixologiya rivojlanayotgan fanlar tizimida. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotida psixologik qarashlarning o'rni.* Psixologiya fanining vazifalari.

Psixologiyaning zamonaviy usullari va ularni amaliyotga tadbiiq etish.

Psixologiyaning asosiy usullari: kuzatish, so'roq, test, eksperiment, modellashtirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda psixologiya fanining ahamiyati va uning vazifalari. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etilishda faol ishtirok etuvchi shaxsning ma'naviy kamolotida psixologiyaning o'rni.

Psixologiyada shaxs va jamiyat muammosi.

Shaxs tushunchasi. Shaxs va shaxsga ta'sir etuvchi kuchlar. Shaxsning o'z-o'zini anglashi va "men" obrazi. Turli taraqqiyot davrlarida shaxsning ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo'nalishining shakllanishi. Shaxsda e'tiqod, dunyoqarash, qiziqishning rivojlanishi.

Shaxsning faolligi. Faoliyat turlari, motivatsiyasi va ularni boshqarish

Faoliyat haqida umumiy tushuncha. Shaxs faoliyati va uning psixologik tuzilishi. Faoliyat va psixik jarayonlar. Ish-harakatlar inson faoliyatidan biri ekanligi. Tashqi (amaliy), ichki (aqliy) ish-harakatlar. Ko'nikma va malakalar, ularning asosiy turlari. Etakchi faoliyat haqida tushuncha.

Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va uning adekvatligi

Diqqatning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni va xususiyatlari. Ta'lim jarayonida diqqatning roli.

Sezgilar va ular to'g'risidagi nazariyalar. Sezgi turlari. Sezgilarning Ch. Sherington klassifikatsiyasi Angliyalik nevrolog X. Xedning sezgilar to'g'risidagi genetik klassifikatsiyasi xususiyatlari.

Idrok jarayonlari. Idrokning fiziologik va psixologik xususiyatlari.

Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur jarayon sifatida. Tafakkurni tadqiq etishning ijtimoiy ahamiyati. Yoshlarda yangicha tafakkur yuritishni shakllantirish. Tafakkur motivatsiyasi va fikrlash operatsiyalari Mustaqil fikrlashning tabiiy asoslari.

Shaxsning individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish

Temperament shaxsning emotsional qo'zg'aluvchanligi va harakatchanligidagi individual xususiyatlar yig'indisi sifatida.

Xarakter to'g'risida tushuncha. Xarakterning faoliyat va muomala jarayonida shakllanishi.

Qobiliyat turlari. Qobiliyatlar shakllanishida senzitiv davrlar.

Hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy yo'nalishlar

Funksional psixologiya vujudga kelishining ijtimoiy va nazariy asoslari. Funksional psixologiyada ongga munosabat masalalari.

Bixeviorizm oqimi vujudga kelishidagi asosiy omillar.

Bixeviorizm oqimida ongga va xulq-atvorga munosabat.

Geshtalt psixologiya oqimi to'g'risida umumiy tushuncha. Geshtalt psixologiyada predmet va fazo munosabatlarini idrok etish masalalari.

Freydizm oqimining mohiyati. Freydizmda nevrozlar kelib chiqish manbaiga munosabat.

Z. Freyd klassifikatsiyasiga ko'ra ruhiyatning uch xil tuzilishi darajasi. Shaxsning tarkibiy tuzilishi. Gumanizm psixologiyasida inson va inson resurslariga yangicha munosabat.

Pedagogik faoliyat psixologiyasi

O'qituvchi va talaba hamkorligi ta'lim samaradorligining muhim omili. Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarishi. O'qituvchining psixologik xususiyatlari. O'z-o'zini nazorat qilish. Keng ko'lamdagi bilimlar, ta'lim usullarini sistemalashtirish.

Ta'lim psixologiyasining asoslari, mohiyati va qonuniyatlari

Umumiy ta'lim masalalarini hal qilishda va shaxsni ma'naviy tomondan kamol toptirishda pedagogik psixologiyaning tutgan o'rni. Ta'limni individallashtirishda qobiliyatning ahamiyati. Aqliy rivojlanish mezonlari. Psixologik xususiyatlarni ta'limni rivojlantirishdagi o'rni.

Tarbiya psixologiyasi asoslari. Jamoa va uning tarbiyaviy ta'siri.

Shaxs tarkib topishining umumiy psixologik qonuniyatlari. Ta'lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalarining ahamiyati. Ma'naviy bilim va ma'naviy xulq-atvorning tarbiya motivlarga bog'liqligi.

Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari. O'spirinlik va etuklik davrlari psixologiyasi

Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari. Talabalar psixologiyasi va o'quv faoliyati. Psixologlar M. G. Davletshin, I. I. Ilyasov, A. V. Dmitrieva, V. A. Tokareva, E. G. G'ozievlarning talabalik davriga doir psixologik qarashlari.

Muomala texnikasi va strategiyasi. Samarali ta'sir sirlari

Shaxs-ijtimoiy munosabatlar mahsuli. Muloqot turi va shakllari. Insoniy munosabatlarning o'zaro ta'sir jarayonlari. Psixologik ta'sir vositalari: verbal, paralingvistik, noverbal. Professional tinglash texnikasi.

Guruhlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish

Shaxslararo munosabatlarning yuzaga kelishi. Shaxs taraqqiyotida odamlar guruhining o'rni. Referent guruh. Referent guruhlar turlari: normativ, qiyoslash, negativ. Psixologik moslik mezonlari.

Menejerlik psixologiyasi

Boshqaruv psixologiyasi haqida tushuncha. Boshqaruv ob'ekti va sub'ekti. Boshqaruv qoidalari va usullari. Boshqaruvda avtoritar, demokratik va liberal uslublar. Rahbarning axloqiy tamoyillari. Ustuvor iqtisodiy boshqaruv usullarining axloqiylik kasb etishi.

Tadbirkorlik va biznes psixologiyasi asoslari*

Tadbirkorlik va biznes faoliyati psixologiyasi haqida. Tadbirkorlik faoliyatida shaxs psixologiyasi xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatida muloqot jarayonining ahamiyati. Tadbirkorlik faoliyatida nizolar va ularni oldini olishning psixologik usullari.

Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi*

Oilada shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Oilada shaxslararo munosabat. Oilaviy nizolarning bola ruhiyatiga ta'siri. Nikohga etuklik xususiyatlari. Oila-ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i. Yurtimizda oila davlat himoyasida.

Guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy psixologik shartlari. Monolog. Dialog. Polilog. Faol o'qitish usullari va ularni tashkil etish. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi. Bahs turlari. Yozma bahsni o'tkazish usuli. Ta'lim jarayonida pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari. Munozara usullarining ijtimoiy psixologik ahamiyati. Katta va kichik guruhlarda munozaralarni tashkil etish qoidalari. Bahsda samarali ishtirok etish tamoyillari.

4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR

Aqliy taraqqiyot testi, Raven testi, Burdon jadvali, Kettel testi, Ayzenk so'rovnomasi, K. Yungning xarakter tipini aniqlash usulikasi, differentsial-diagnostik so'rovnoma.

Bakalavriatlarga internet tarmog'i orqali quyidagi saytlardan o'quv filmlari olinadi:

1. e-mail: sales@piter-press.ru
2. e-mail: piter-t@lincom.kharko.ua
3. e-mail: root@top-book.nsk.su
4. e-mail: postbook@piter-press.ru

Ma'ruza va seminar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI

Fanga ajratilgan maksimal ball-90, bundan joriy baholash 37,8, oraliq baholashga 25,2 yakuniy baholashga 27,0 ball ajratilgan. Joriy, oraliq va yakuniy baholashlar talabalar bilimini og'zaki, yozma shakllarda nazorat qilish hamda referatlarni tekshirish usulida o'tkaziladi. Saralash ball – 49,5 ball.

O'quv yili davomida "Psixologiya" fanidan 56-70% to'plaganlar "qoniqarli", 71-85% to'plaganlar "yaxshi", 86-100% to'plaganlar "a'lo" baholar bilan baholanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997.
13. Karimova V. M, Akramova F. A Psixologiya. Ma'ruzalar matni. - T.: O'qituvchi, 2001.
14. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 1998.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000.
16. G'oziev E. Psixologiya.-T.: O'qituvchi, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anikeeva N. P. Jamoada ruhiy muhit. -T.: O'qituvchi, 1997.
2. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. -M.: 2000.

3. Adizova T. M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi.-T.: 2000.
4. Bodalev A. A. Myagkost i obshchenie. -M.: Nauka,1998.
5. Vigotskiy A.S. Voprosi teorii i istorii psixologii.- M.: Misl, 1996.
6. Do'stmuxammedova Sh. A. O'quvchilarga o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi.- T.: 2000.
7. Karimova V. M. Sotsial psixologiya. - Farg'ona, Farg'ona davlat universiteti, 1996.
8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. -T.: O'qituvchi, 1996.
9. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. Perv. s angl.-Sankt-Peterburg, izd-vo Piter Kom, 1998.
10. Leontev A.N. Problemi razvitiya psixiki. -M.: MGU, 2000.
11. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi.-T.: O'qituvchi, 1997.
12. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya. Perv. s angl.-Sankt-Peterburg.: Piter Kom, 1998.
13. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at.-T.: 1998.
14. Pod. red. Krilova A. Psixologiya. Uchebnik.-M.:1998.
15. Prakticheskaya psixodiagnostika. Usulika i testi.-M.: 1999.
16. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya.-M.: 1999.
17. Safaev N.S, G'afforov B. T. Muomala sirlari. Deyl Karnegi tizimi asosida tuzilgan maslahatlar.-T.: O'qituvchi, 1997.
18. Sotsialnaya psixologiya. Istoriya. Teoriya. Empiricheskie issledovaniya.- L.: 1999.
19. Strelyats Ya. Rol temperamenta v psixologicheskom razvitii.-M.: 2000.
20. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1999.
21. Toshimov R, Mamatov M, G'oziev E. G'. Aqliy kamolingizni aniqlay olasizmi? -T.: 1997.
22. Teoreticheskaya i prikladnaya sotsialnaya psixologiya.
23. Otv. red. A.I. Uledov.-M.: Misl, 1998.
24. Umumiy psixologiya.- T.: O'qituvchi, 1999.
25. Xell L, Zigler D. Teorii lichnosti. Perv. s angl.-Sankt-Peterburg.: Piter Kom, 1998.
26. Shoumarov G'. B. Oila psixologiyasi.-T.: O'qituvchi, 2000.
27. Shpalinskiy V. A. Psixologiya menejmenta. Ucheb. Posobie. -M.: Izd. vo URAO, 2000.
28. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. -M.: 1999.
29. Eydmiller E. G, Yustitskiy V. V. Psixologiya i psixoterapiya semi. Perv. s angl. - Sankt-Peterburg.: Piter Kom, 1998.
30. Yaroshevskiy M.T. Istoriya psixologii.-M.: Misl, 1999.
31. G'oziev E. G'. Tafakkur psixologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1997.

32. G'oziev E. G', Azimov N, Usmonova E. Diqqat psixologiyasi. Universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma.-ToshDU.: 1998.
33. G'oziev E. G', Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi.-T.: 2000.
34. G'oziev E. G', Xasanov B. Psixologiya nazariyasi.-T.: 1998.
35. G'oziev E. G'. Inson psixologiyasining rivojlanishi.-T.: 1999.
36. G'oziev E. G'. Oliy maktab psixologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1999.
37. G'oziev E. Muomala psixologiyasi.-T.: O'qituvchi, 2001.